

PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY TADQIQOTLAR

Onlayn ilmiy jurnal



Jild: 05 Nashr: 02 (2026)

www.mudarrisziyo.uz





PROFESSIONAL TA'LIM TIZIMIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH USLUBIYATI

Sharipov Nodirjon Axmadovich

Samarqand ilg'or kasbiy mahorat texnikum maxsus fan o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada professional ta'limda ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning texnik va axborot vositalarini joriy etilishi, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovasion shakllari va usullaridan samarali foydalanish keltirib o'tilgan.

Abstract. In this article, advanced forms of teaching, new pedagogical technologies, introduction of technical and informational means of teaching, information and communication technologies, advanced and innovative forms of teaching and upbringing in professional education are discussed. and effective use of the methods is cited.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, axborot, kommunikasiya, texnologiya, innovatsiya, bilim, ko'nikma, malaka, kompetensiya, metod, metodika, muloqot, mustaqil fikr, kreativlik, tajriba, dastur, vosita, jarayon, natija.

Professional ta'limning «Ilg'or pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish» mavzusini o'rganishdan asosiy maqsad o'quvchilarning bilim sifatini ta'minlashda ko'nikma va malakasini oshirish orqali baholash kompetensiyani ta'minlashdan iborat. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning kasbiy va shaxsiy sifatlarini rivojlantirish asosida ularni mehnat bozorida munosib o'rnini topishini kafolatlash. Davlat dasturi doirasida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mazmun-mohiyatini pedagoglarga yetkazish hamda noan'anaviy darslar pedagogikaning asosiy qonuni - ta'lim faoliyati to'g'risidagi qonunni amalga oshirishga olib keladigan yangi uslublar, shakllar, usullar va o'qitish vositalarini ishlab chiqishni shakllantirish axborot-ta'lim muhitida mustaqil faoliyat ko'rsatish hamda axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qoyadi.

Mavzuning dolzarbligi

O'zbekiston Respublikasi 23.09.2020 yil "Ta'lim to'g'risidagi qonun"da "Ta'lim-tarbiya jarayoniga o'qitishning ilg'or shakllari, yangi pedagogik texnologiyalar, o'qitishning texnik va axborot vositalari joriy etilishini ta'minlaydi, axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovasion shakllari va usullaridan foydalanishi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5313-son Qarorda "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning bugungi kun talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko'rsatdi" deb kamchiliklar ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

PF-5812-Qarorda 2020 yil 1 aprelgacha idoraviy bo'ysunuvidan qat'iy nazar professional ta'lim muassasalarining o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'lim ustalarini qayta tayyorlash va malakasini

oshirishning yangi tizimini joriy etishni nazarda tutuvchi hukumat qarori loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasiga kiritish» deb topshiriq berilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 466-son Qarorida “Kasbiy kompetensiyalar va umumta’lim fanlarini o’zlashtirishni rivojlantirishga qaratilgan turli ko’rik-tanlovlarda belgilangan tartibda ishtirok etish; axborot — kutubxonalar, professional ta’lim muassasasining o’quv, ijtimoiy, davolash va boshqa bo’linmalari xizmatlaridan ta’lim muassasasi ustavi” da belgilangan tartibda bepul foydalanish ko’rsatib o’tilgan.

Keling, asosiy vazifalarni ajratib ko'rsatamiz:

O'quvchilarni o'quv va amaliy dars mashg'ulotlarda to'liq ishtirok etishi, fanlar bo'yicha o'quv dasturi asosida bilimlarni muntazam o'zlashtirib borishi, o'quvchilar, o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'limi ustalari tomonidan turli metodlar orqali bilim, ko'nikma va amaliy tajribaga ega bo'lish orqali quyidagi vazifalarni belgilaydi:

- ta'lim-tarbiya jarayonini amaldagi holatini tahlil qilish;
- ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashirishga qaratilgan ishlarni tashkil etish;
- ilg'or ish tajribalarni izlash, tanlash, organish, ommalashtirish;
- amalga oshirilgan ishlar asosida pedagogik hodimlarni metodik ta'minotga bo'lgan ehtiyojini aniqlash va ularga turli shakllarda metodik yordamlar ko'rsatish.

Ilg'or pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Ta’lim muassasamiz Samarqand ilg’or kasbiy mahorat texnikumida ilg’or pedagogik texnologiyalaridan dars jarayonida foydalanishga alohida urg’u berilgan va shu asosida reja ishlab chiqilgan. Dars jarayonida har bir o’qituvchidan ilg’or pedagogik texnologiya asosida dars o’tilishiga katta e’tibor berilishi talab etiladi. Pedagoglar dars o’tish jarayonida “Zinama-zina”, “Baliq skeleti”, “Venn diagrammasi”, “Didaktik o’yinli”, “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Nima uchun”, “T jadvali”, “Kichik guruhlarda ishlash” v.b. pedagogik texnologiyalardan foydalanib o’tiladi. Ta’lim muassasada pedagoglar uchun o’quv seminarlari va ta’lim sifatini oshirish maqsadida ilg’or pedagogik texnologiyalar asosida ochiq darslar tashkil etiladi va eng yaxshi o’tilganlarni ta’lim muassasasida ommalashtiriladi.

Noan'anaviy darslarning afzalliklari:

- ▶ O'qitish mazmunini yaxshi o'zlashtirishga olib kelishi.
- ▶ O'z vaqtida aloqalarning ta'minlanishi.
- ▶ Tushunchalarni amaliyotda qo'llash uchun sharoitlar yaratilishi.
- ▶ O'qitish usullarining turli xil ko'rinishlari taklif etilishi.
- ▶ Motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi.
- ▶ O'tilgan materialning yaxshi eslab qolinishi.
- ▶ Muloqotga kirishish ko'nikmasining takomillashishi.
- ▶ O'z—o'zini baholashning o'sishi.
- ▶ O'quvchilarning predmetning mazmuniga, o'qitish jarayoniga bo'lgan ijobiy munosabati.
- ▶ Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berishi.
- ▶ Nafaqat mazmunini o'zlashtirishga yordam bermay, balki tanqidiy va mantiqiy fikrlashni ham rivojlantirishi.

Ilg'or pedagogik texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish bo'yicha muammolar va ularning yechimi bo'yicha takliflar:

Muammolar

1. Ta'lim berish jarayonlarida pedagoglar ilg'or pedagogik tajribalaridan foydalanishi.
2. Pedagog xodimlar tomonidan yaratuvchanlikka (kreativlikka) intilishni oshirish.
3. Pedagoglarni faoliyatida o'z mutaxassisliklari bo'yicha o'zaro fikr almashuvchanligini sustligi.

Takliflar

1. Dars jarayonini ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda noan'anaviy tarzda tashkil etish.
2. Ta'lim muassasa miqiyosida "Professional ta'lim yetuk o'qituvchisi" tanlovini tashkil etish.
3. Pedagogik ishlanmalar, ilg'or pedagogik tajribalarga asoslangan o'qitish materiallar to'plamlari, uslubiy qo'llanmalarni yangi innovasion texnologiyalar asosida ishlab chiqish.

Erishiladigan natijalar

- ❖ Ilgor pedagogik tajribalar o'rganiladi va ulardan foydalanish yo'lga qo'yiladi;
- ❖ Shaxsiy pedagogik tajriba oshadi;
- ❖ Pedagogik ishlanmalar, ilg'or pedagogik tajribalarga asoslangan o'qitish materiallar to'plamlari va uslubiy qo'llanmalar yaratiladi;
- ❖ Pedagoglarning fundamental bilim darajasi yuksaladi;
- ❖ Pedagoglarning o'z ustida izlanuvchanlik faoliyatini oshishi;
- ❖ Ta'lim muassasasida dars jarayonini noan'anaviy tarzda borishi yaxshilanadi.

Xulosa va tavsiyalar

Ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri bu-ta'lim muassasasi pedagog xodimlarining dars jarayonida ilg'or pedagog texnologiyalaridan keng miqyosda amalga oshirishdir. Ular tomonidan ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikasiya va innovasion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishidan iboratdir. Ta'lim sifatini oshishi va dunyoda yagona ta'lim tizimi hamda maydonini shakllanishi o'zaro uzviy bog'liq jarayonlardir. Ta'lim sifatini oshirish chegara bilmas sohadir. Pedagoglar o'rtasida ta'lim sifatini oshirish va o'z ustida izlanuvchanligini yanada oshirish uchun "Professinol ta'limi yetuk o'qituvchisi" va shu tarzdagi ko'plab tanlovlar tashkil etilishi yuksak yutuqlarga erishish uchun maqsadli tanlovdir. Shu sababli hozirgi kunlarda ta'lim sifatini o'sish dinamikasini to'g'ri baholash, uning mezonlarni aniq belgilash va kelajak ta'lim sifati ko'rsatkichlarini bilish, rejalashtirish o'ta muhim hisoblanadi. Professinol ta'limi bo'yicha xalqaro tajribalar va ularni ta'lim jarayoniga qo'llash tartibini, dars jarayonini noan'anaviy tarzda tashkil etilishi, o'quv faoliyatni tashkil etish tartibini, ta'lim muassasasida tarbiya va hamkorlik faoliyatini tashkil etish uchun olib borilishi lozim bo'lgan ishlarni, ilg'or pedagogik texnologiyalardan keng foydalanish va ta'lim muassasasida joriy etish bo'yicha bilimlarga ega bo'ladi. Har bir professional ta'limi o'qituvchisi o'ziga kerakli bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi va professional ta'lim tizimida o'z faoliyati davomida qo'llash maqsad muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 5812-son farmoni.
2. 2020 yil 23-sentyabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni asosida
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 7-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 466-sonli qarori.
4. Lex.uz. internet saytlaridan edu.profedu.uz.